TURKIY TIL MANBALARI TILIDA “AQL” KONSEPTI BILAN BOG‘LIQ LEKSEMALARNING LINGVOMADANIY TAHLILI

Abdujabbarova Feruza Abdunazarovna
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti
Tillar va maktabgacha ta’lim kaferdrasi
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

https://doi.org/10.5281/zenodo.14603720

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada til ijtimoiy hodisa bo‘lish bilan birgalikda madaniyat bilan ham uzviy bog‘liqligi, bugungi kunda insonlar, xalqlar, mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, madaniy hamda ilmiy aloqalar, xalqaromadaniy kommunikativ jarayonlar tilshunoslik sohasida tillarning o‘zaro munosabati va til madaniyati hamda tilning milliy o‘ziga xos ko‘rinishi va madaniyatshunoslik o‘rtasidagi alohida spetsifik yo‘nalishi va predmetiga ega bo‘lgan yangi soha-lingvokulturologiyaning yuzaga kelishi hamda tarixiy obida sanalmish “Qutadg‘u bilig” asari pandnoma sifatida o‘z shon- shuhratiga ega, bu holat o‘z o‘rnida millatimizning tarixiy bosqichida aqlli, fahm- farosatlilik milliy o‘zligimiz hamda madaniyatimizga poydevor vazifasini o‘taganligi haqida so ‘z boradi. Shu bilan birga asar tilida keltirilgan aql, fahm – farosat konsepti bilan bog‘liq leksemalar tahlilga tortildi.

KALIT SO‘ZLAR

lingvokulturologiya, lingvomadaniyatshunoslik, millat, milliy an’analari, urf-odatlar, konsept, adektivlik, ma’nodosh sifatlar, leksema, sema.

АННОТАЦИЯ

Эта статья посвящена тому, национальный язык всегда связан с культурой, экономические, политические,культурные и научные связи между людьми, народами, странами, международные культурные коммуникативные процессы имеют особое специфическое направление и предмет в области лингвистики и культурологии, такие как языковое взаимодействие и языковая культура.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

лингвокультурология, лингвокультурология, нация, национальные традиции, обычаи, понятие, адекватность, значимые прилагательные, лексема, сема.

«Кутадгу билиг», являющийся историческим памятником, имеет свою славу как пантоним, в котором говорится о том, что на историческом этапе нашей нации мудрость, проницательность послужили основой для нашей национальной идентичности и культуры. При этом к анализу были привлечены лексемы, относящиеся к понятию интеллекта, простодушия, представленные в языке произведения.

KEY WORDS

linguoculturology, nation, national traditions, customs, concept, significance, significant adjectives, lexeme, sememe.

ABSTRACT

This article is devoted to the fact that the national language is always connected with culture, economic, political, and scientific ties between people, peoples, countries, and international cultural communication. Linguistic interaction and linguistic culture are special directions and subjects in the field of linguistics and cultural studies.

The historical monument "Kutadgu Bilig" has its fame as a scholar who says that at the historical stage of our nation, wisdom and insight served as the basis for our national identity and culture. At the same time, lexemes related to the concept of intelligence and simplicity were involved in the analysis of the work.

KIRISH

Har bir xalqning tarixi o‘z milliy madaniyatining ko‘zgusi sanaladi. Milliy madaniyat o‘z ichiga urf- odatlarni, qadrli bo‘lgan an’analar, xalqning dunyoqarashiga, e’tiqodiga oid milliy qarashlar, aytimlar, maqol va matallarni oladi.

Ma’lumki, jamiaytdagi har bir inson o‘z holicha madaniyatni tashuvchisi, ma’lum bir ma’noda esa til, madaniyat, tarix va badiiy adabiyotga ta’sirini o‘tkaza oluvchidir.

Har bir til jamiyatga xizmat qiluvchi ijtimoiy hodisa ekanligi tan olingan, tilning aloqa vositasi vazifasiga madaniyat, milliy dunyoqarash, tilning milliy ko‘rinishini ham yuklatilgan.

Bugungu kunda o‘zbek tili tarixiga oid manbalar tili ayni ajdodlarimiz ijod namunalarida til madaniyatini o‘rganish, millatning shakllanishidagi eng

muhim vosita bo lganligini tadqiq etish masalasi maqola mavzusining dolzarbligini belgilab beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Til va madaniyatning o‘zaro bog‘liq ekanligi, madaniyatning tildagi in’ikosi, tilda madaniyatning ifodasi, uning aks etishi kabi masalaning tilshunoslikda o‘rganilishi yaqin yillardan boshlandi. Ularning metodologik asosi sifatida V.M.Shaklein, V.V.Vorobyov, V.N.Teliya, V.A.Maslovalarning ishlarini ko‘rsatish o‘rinlidir. O‘zbek tilshunosligida ham lingvokulturologik soha jadallik bilan rivojlanib bormoqda, bu sohaning ilmi asoslanishi borasidagi ilk izlanishlarga “O‘zbek tilida lingvokulturologik yo‘nalish” (A.Nurmonov) , “Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab” (N.Mahmudov).

Lingvokulturologiyaning ilmiy asoslanishiga doir ayrim mulohazalar” (N.Sayidrahimova) hamda D.Xudoyberganovaning “Matnning atropotsentrik tadqiqi” nomli dissertatsiyasini belgilash mumkin. Mazkur ishlarda lingvokulturologiya yo ‘nalishining fan sifatida rivojlanishi, fanining mazmun-mohiyati, predmeti va tadqiqot obyekti masalalari o‘rganilgan.

“Lingvokulturologiya” atamasi dastlab frazeologik maktab asoschisi V.N.Teliya, V.V.Vorobyov, V.A.Maslovalarning ishlariga olib kirildi. [11. 2021: 5.423].

Lingvokulturologiyaning shakllanishi ildizi V.F.Gumboldtga borib taqalishini ta’kidlaydilar[8.M. 1987.B.23-40]. Keltirilgan adabiyotlarda bu sohaning rivojlanishida A.A.Potebnya, X.Glins, X.Xols, D.Uitni, D.U.Pauell, B.L.Uorf, F.Boas, E.Sepir, G.Brutyan, L.Vaysgerber, D.Xaymz A.Vejbiskaya kabi tilshunoslarning fikrlari ma’lum darajada asos bo‘lganligini ta’kidlash maqsadga muvofiqdir [4.M.,1987].

Ana shu g‘oyalar asosida ming yillar davomida chet elda yangi fan – lingvokulturologiya vujudga keldi va XX asrning 90-yillarida maxsus soha sifatida shakllandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

“Qutadg‘u bilig” asari pandnoma sifatida o‘z shon- shuhratiga ega, bu holat o‘z o‘rnida millatimizning tarixiy bosqichida aqlli, fahm- farosatlilik milliy o‘zligimiz hamda madaniyatimizga poydevor vazifasini o‘taydi.

Turkiy til obidalaridan biri bo‘lgan “Qutadg‘u bilig” asari asosida shaxsning fe’l-atvori, xarakterini ko‘rsatuvchi, fahm- farosat konsepti bilan bog‘liq leksemalarning lingvikulturologik xususiyatlari tahlilga tortildi.

“Fahm-farosatli, aqlli” konseptiga doir leksemalar pandnomada bir nechta ma’nodosh sifatlar bilan anglashilgan. “Aql, farosat” semali өg leksemasidan

- lug qo‘shimchasi bilan hosil bo‘lgan **өglүg** yasamasi qayd etilgan semada faqat Yusuf Xos Hojib ijodida qayd etilgan:

Вазирлыққа артуқ бутүн эр кэрәк
Оқығлы битигли кәд өглүг кэрәк
“Vazirlikka juda ham yetuk kishi kerak,
O‘qimishli, yozuvni biluvchi, juda aqlli (kishi) kerak” (2199).

Farosat so‘zining yana bir “zakovat” ma’noli ***уқуш*** (< уқ = “anglamoq, tushunmoq, uqmoq) mavhum otiga - ***луғ*** affiksini qo‘shishdan hosil qilingan ***уқушлуғ*** **“**fahmli” semasi bilan asarda eng ko‘p qo‘llangan so‘zlardan hisoblanadi [1. T., 2011.–162 б.]:

Муны чын билигли уқушлуғ болур
“Buni haq deb biluvchilar zakovatli bo‘ladi” (3695).

Ushbu leksemani “Devon”da kuzatilishi: ***уқушлуғ киши*** (I, 93), uning ilk eski turkiy tilda shakllanganini bildiradi. Bu sifat leksema Qutbning “Xusrav va Shirin” (XIII, 5 a 4) asaridan o‘zga XIV asr Xorazm manbalari tilida qayd etilmaydi. “Bilmoq, fahmlamoq, egallamoq” ma’nosini anglatuvchi ***бил*** = fe’li asosida shakllangan ***билгә*** derivati “aqlli, dono, bilimdon” semasida ilk bor O‘rxun-Enasoy bitiglarida ifodasini topgan (DTS, 99). Mahmud Koshg‘ariy mazkur leksemaning “oqil, aqlli” (I, 403) hamda “olim” (I, 403) ma’nolari borligini qayd etgan.[1.T.2011.B-60.] Yusuf Xos Hojib asari tilida leksema, asosan, o‘zining dastlabki semasida ishlatilgan:

Нэкү тэр эшит эмди билгә тэтиг
“Endi eshitgin, tetik, dono nima deydi” (740).

Ijobiy baho ottenkasiga ega ushbu sifat leksema “bilag‘on, donishmand, aqlli” ma’nosini anglatuvchi ***бөгү*** ad’yektivi bilan sintagmatik munosabatga kirishib, juft so‘z tarzida “bilag‘on, dono” ma’nosini anglatgan[1.T.2011.]:

Эшитгил нэкү тэр бөгү билгә бэг
“Bilag‘on dono beg nima deydi, eshitgin” (327).

“Devon” tilida bilgə **бөгү** shaklli juft so‘zi “bilag‘on, aqlli, donishmand”ni bildirganligi urg‘ulangan (III, 248). XIV asr obidalarida ***билгә бөгү*** shaklli juft so‘zi “bilag‘on, aqlli, donishmand”ni bildirganligi ta’kidlangan (III, 248). XIV asr obidalarida ***билгә***, acocан, “hakim, hikmatshunos” ma’nosida qo‘llanishda bo‘lgan

(SUYA, I, 242; Qisasi Rabg‘uziy, 181 v 1). ***Бөгү*** sifati keyingi davr manbalarida uchramaydi.

Ta’kidlash joizki, “ong, tafakkur, aql” ma’nosini bildiruvchi ’aql o‘zlashmasi XII asrdan eski turkiy til so‘z tarkibidan o‘rin olgan. XIV asr manbalari tilida ushbu arabcha so‘z turkiycha – ***лыг*** qo‘shimchasi ishtirokida ***’ақллыг*** sifatini yasashda qatnashgan (Qisasi Rabg‘uziy, 231 r 16; ХШ 33 б 11) va boshqa arabcha ***’ақил*** (Қисаси Рабғузий, 10 r 18; Г, 51 б 11; ХШ, 23 б 14; НФ 75 а 1) o‘zlashmasi bilan ma’nodoshlik qatorini shakllantirgan. ***Уқушлуғ*** leksemasining keyingi davr obidalarida onda-sonda ishlatilishi, ***бөгү*** ning esa iste’moldan chiqib ketishini ***’ақллыг*** va ***’ақил*** leksemalarining faollashuvi natijasi deb qaramoq lozim. O‘rganilayotgan ma’noning dostonda ifodalanishi borasidagi mulohazani yuqorida zikr etilgan ***уқуш*** ot leksemaning Yusuf Xos Hojib tomondan muayyan o‘rinda “aqlli, zakovatli” ma’nosini anglash uchun ishlata olganini qaydlash bilan yakunlashni ma’qul topdik [1.T. 2011. B-103]:

Ham pandnoma, ham “Devon”da yinchkə leksemasi “ingichka, yupqa” ma’nosini anglatgan (DTS, 261). Yusuf Xos Hojib ushbu so‘zni “andishali, rejali” semasini bildiruvchi saqынyq leksemasi bilan valentlik munosabatiga kiritadi va “farosatli, aqlli” ko‘chma ma’noni ifodalashga xizmat qildiradi:

Эй йинчкə сақынуқ тиләгли ынал
“Ey, farosatli, andishali (xotin) istovchi jo‘ra” (4393).

“Bosh miya” ma’nosi pandnomada ***мэңə,*** “Devon”da ***мэңи*** (miŋi (II, 346) shaklli ot leksema bilan ifodalangan. Yusuf Xos Hojib ushbu so‘zni “to‘la, butun” semali ***толу*** sifati bilan bitishtiradi va “miyasi to‘la, o‘ta aqlli” ma’nosini ifodalaydi:

Билиглиг уқушлуғ мэңəси толу
“Bilimli, zakovatli, miyasi to‘la (kishi)” (5975).

Hozirgi o‘zbek tilidagi **miyasi to‘la** birikmali sifatining ibtidosi aynan Yusuf Xos Hojibning so‘z yasash mahorati bilan bevosita bog‘liqligini qayd etish ayni muddaodir.

Tahlil qilinayotgan ma’noning qadimgi turkiy til va eski turkiy til manbalarida “bilim, aql, fahm” ma’nolarida kuzatilishi, ***билиг*** yasamasining poemada “aqlli, dono” semasida ishlatilganini e’tirof etadi [1.T. 2011. B.93]:

Нэ эзгү нəң - ул билигləр сөзи
“Donolar so‘zi qanday ezgu narsa” (3989).

“Aqlli, ziyrak, es-hushli” ma’nosini ifodalashda doston muallifi “yurakli, qalbli” hamda “jonli, qaynoq” ma’nolari bilan qadimgi turkiy tilda (DTS, 316) qo‘llangan ***көңүллүг*** derivatiga murojaat etadi [1.T. 2011. B.105]:

Көңүллүг кэрэ ҳам кэз өглүг кэрэк
“Es- hushli hamda juda aqlli bo‘lishi kerak” (2431).

Mazkur derivat kishi so‘zi bilan birikib, ***көңүллүг киши*** birikmali sifatini yuzaga chiqargan va “es - hushli, ziyrak kishi”ni ifodalagan:

Коңүллүг киши сөз унутмас болур
“Es-hushli kishi so‘zni unutmaydigan bo‘ladi” (2432).

So‘nggi ma’no “Devon”da ***көңүллүг эр*** birikmasi bilan anglashilgan (III,377). “Qisasi Rabg‘uziy” tilida ***көңүлли*** (19 r 22), ***көңүллү*** (6 r 4), ***көңүллиг*** (6 r 5) fonetik variantlari “yurakli, ko‘ngilli” ma’nosida ishlatilgan.

Tahlil etish jarayonida inson ongida voqelanadigan“fahm-farosatli, aqlli” konseptiga oid leksemalar paradigmasida aqlning “yo‘q”ligi, me’yordan kamligini bildiruvchi leksik birliklar ham mavjudligi, ular, asosan, biz ko‘rib chiqqan so‘zlarga antonimlik munosabatini tashkil qiladi, tahlil qilingan leksemalar bilan zid ma’noliligi bilan xarakterlanishi aniqlanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, “fahm-farosatli, aqlli” konseptiga oid leksemalar milliy madaniyatning darajasini, ma’naviy yetuklikka intilishda asosiy omillardan biri ekanligini hamda miqdori “farosatsiz, befahm, aqlsiz,” semasini anglatuvchi ad’yektivlardan deyarli ikki baravar ortiqligini ko ‘rsatdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абдужаббарова Ф. “Қутадғу билиг”даги шахс белги-хусусиятини англатувчи лексика. Филол. фан. ном... дисс.–Т., 2011.–162 б.
2. Абдуллаев. Ҳ. “Қутадғу билиг”даги халқ мақолларининг бадиий-эстетик вазифалари // “Қутадғу билиг” – буюк маънавий мерос. Илмий конференция материаллари. –Т., 2010.
3. Арзиев Р. Лексико-стилистические особенности языка поэмы «Кутадгу билиг» Юсуфа Хос Хаджиба. Автореф. дисс. канд. филол. наук.–Алматы, 1991.

4. Asadova S. “Qutadg‘u bilig”ning badiiy xususiyatlarining o‘rganilish tadriji.– Qarshi, 2014.– 56 b.
5. Дадабоев Ҳ. “Қутадғу билиг” матнида бадиий актуаллашган лексик воситалар хусусида// Стилистика ва прагматика. Профессор С. Каримов таваллудининг 60-йиллигига бағишланган илмий-назарий конференция материаллари.– Самарқанд. 2010. 4-5 июнь. 48-52 –бетлар.
6. Дадабоев Ҳ.Ҳамидов З., Холманова З. Ўзбек адабий тили лексикаси тарихи.–Тошкент:Фан, 2007.
7. Nurmonov A. Ovrupoda umumiy va qiyosiytilshunoslikning maydonga kelishi. Nurmonov A.Tanlangan asarlar.2- jildlik.-Toshkent:Akademnashr, 2012.-B.23-40.3
8. Маслова В.В. Лингвокультурология в системе гуманитарного знания/ Критика и семиотика. – М.,1987.
9. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (Туркий сўзлар). -Тошкент: Университет, 2000. -600 б.
10. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили луғатининг туркий қатлами. -Тошкент: Университет, 2001. -351 б.
11. Amonova M. O. Lingvomadaniyatshunoslik fanining tarixiy va nazariy negizlari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 1 | ISSUE 4 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2021: 5.423